

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:13 (67178)
2018-yil 26-mart

Tong yuleduzi

www.tongyuleduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O’zbekiston Respublikasi bolalar va o’smirlar gazetası

ISSN - 2010-6092

ko’kLAM zAVQIN kuyLAYdi BOG’LAR



Biz maysadek ko’karamiz,
Yurtni ko’kka ko’taramiz.

Quyosh kuylar boshimizda,
Tinchlik quvnar qoshimizda.

Rang sochadi bog’-u bo’ston,
Gullab-yashnar O’zbekiston!

AXTAMQULI



Betakror

diyorimizning ajib go’shalarida kezayotgan
bahoriy ayyom shukuhি yurtdoshlarimiz qalbiga quvonch
va shodlik ulashmoqda. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
59-umumta’lim maktabining 2-«B» va 3-«X» sinf o’quvchilari sinfrahbari
Vasila opa Rahmonova boshchiligidagi o’tkazgan bayram sayli ham
yig’ilganlarga unutilmas lahzalarini hadya etdi.

- Qo’l jangi sport turi bilan
shug’ullanaman. Bo’sh vaqtimda kitob
o’qishni yaxshi ko’raman, - deydi poytaxtimizning
Bektemir tumanidagi 290-umumta’lim maktabining
1-«G» sinf o’quvchisi Shohruh Ulug’bekov. -
Kelajakda yurtga nafim tegadigan inson
bo’lish eng katta orzum.

Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning taxti.

olib chiquvchi kuch bu kitobdir. Darhaqiqat, inson qanchalik bilim olishga qiziqsa, u tomon intilsa, albattra, unga ilm bo'stoniga kirishga yo'l ochiladi.



EZGULIKKA ELTUVCHI YO'L

Shu maqsadda yurtimizda kitobxonlikka katta e'tibor berilmogda. Bunga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantrish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoyishini misol qilishimiz mumkin. Ushbu hujjatga binoan yurtimiz bo'ylab kitobxonlikka qaratilgan ko'plab tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Jumladan, «Eng yaxshi kitobxon» respublika tanlovida bir qancha kitobxon-yoshlar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdi. Bellashuvda g'olib bo'lgan o'quvchilar avtomashina va kitoblar bilan taqdirlandi.

Hozirda bizning maktabda ham «Yangi asrarlar taqdimoti», «Eng yaxshi sınıf kutubxonasi», «Kitob mutolaasi kuni», «Oilaviy kitobxonlik kuni», «Mening sevimli kitobim»

mavzularida aksiyalar o'tkazilmoqda. Bunday tadbirlar maktab, oila va mahalla hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Joriy yil fevral oyida maktabimizda «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» nomi ostida kitob yarmarkasi tashkil etildi.

Yarmarkada o'quvchilar istagan kitoblarni ota-onalari ularga sovg'a qilishdi. Bolalar ko'zlaridagi quvonchni ko'rgan har bir inson qalbida kitobga bo'lgan mehr-muhabbat yanada ortdi. Aynan shu kuni maktabda «Eng yaxshi kitobxon sınıf» aksiyasi ham o'tkazildi. Tadbirda 10-«A» sınıf o'quvchilar g'olib bo'ldi.

Ma'mura VALIJONOVA,
Namangan viloyati, Pop tumanidagi
16-umumta'lum maktabining
10-sinf o'quvchisi

TABIATNI ASRASH O'ZIMIZNI ASRASHDIR

Biz yashab, nafas olib turgan ona tabiat butun insoniyatning uyi, makonidir. Tabiatni ko'z qorachig'idek saqlash, atrof-muhit ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik har birimizning burchimizdir.

Tabiat inson va butun mayjudotlarni yashashi, rivojanishni uchun zarur bo'lgan moddiy-ma'naviy ehtiyojlarni qondigandan bitmas-tuganmas manba. Biz usiz yashay olmaymiz. Chunki insonlar tabiatning ajralmas qismi sanalamiz.

Hozirda dunyoning yirik shaharlarida ichimlik suvi yetishmasligi, havo zararli moddalar bilan zaharlanayotgani hech kimga sir emas. Yirik shaharlar chiqindilarga to'lib ketganligi tufayli turli yuqumli kasalliklar odamlarni orasida tarqalmoqda. Umuman, insonning tabiatga bo'lgan ta'siri katta xavf tug'dirmoqda. U biologik muvozanatning buzulishiga sabab bo'imqa.

Shuning uchun ham uni himoya qilish yer yuzidagi barcha insonlarning muqaddas burchi. Har birimiz o'zimiz yashab turgan shahar, mahalla, ko'chani obod qilib, ko'kalmazorlashtirish ishlardira faol ishtirot etsak, borliqni asrashga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamic. Chiqindilarni duch kelgan joyga tashlayotganlarga qarshi kurashsak, atrof-muhitimiz yanada go'zallashib boradi.

Bir so'z bilan aytganda, tabiatni qutqarar ekanmiz, biz o'z-o'zimizni halokatdan xalos etamiz.

Gulchiroy SULTONBEKOVA,
poystaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lum
maktabining 8-«B» sınıf o'quvchisi

Insonni ezgulik sari eltuvchi,
ilmning eng yuqori cho'qqilariga

Teng yulduzi

ULAR MENING USTOZIM!

Maktabda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosari bo'lib ishlayman.

Shuningdek, tajriba sinov sifatida ilk bor tashkil etilgan 10-«A» sinif rahbarligi ham mening zimmamda. Ushbu mas'uliyat hissi menga katta vazifalar yuklaydi. Bugun ham bir olam rejalar tuzib, ishga oshiqdim. Davomatning qanday ekanligini yo'lakdag'i kuzatuvimning o'zidayoq aniqladim. Faqt o'quvchim Shuhratjon ko'rinnadi. Endigina xavotirlana boshlagan edim, uning uzoqroqdan shosha-pisha kelyotganiga ko'zim tushdi. U menga yaqinlashar ekan, yuzimdag'i savloni uqib:

– Singlimni bog'chaga qo'yib kelayapman, – deya gap boshladi.

– Mayli, tezroq darsga kir, – deya unga imladim. Shu payt qayerdandir Shuhratjonning onasi paydo bo'ldi. Men u ayolga salom berarkanman, Navoiy bobomizning quyidagi satrlari yodimga tushdi:

**«Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamat oson emas, haqqin ado ming ganj ila».**

Ha, bu mening bиринчи ustozim edi. Ularning yuzlaridagi ajinga qarab, yillarning shiddatini his etdim. Ustozim Mavjud Asumonovaning bugun o'nlab shogirdlari bir jamoada faoliyat olib bormoqda. Men aziz ustozimni gazeta orqali Navro'z bayrami bilan qutlashni shogirdlik burchim deb bildim.

Hamisha sog'-salomat bo'ling, aziz ustozim! Doimo shogirdlar e'zozida yuring.

Obidjon TOSHPOLATOV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
43-umumta'lum maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinosari



YURAKLarda KO'KLAM NAFASI


Bolalar varragi xayolni olgan,
Bodom gullaridan quvonadi ko'z.
Dillardan mutlaqo g'ubor yoqolgan,
Xush kelding, bahor,
xush ko'rdik, Navro'z!

– O'quvchilarimning har biri bilan alohida shug'ullanishga harakat qilaman. Ayniqsa, shunday badiiy kechalarining tez-tez uyushtirilishi, bolalarda Vatan tug'usining shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, adabiyotga bo'lgan qiziqishi ortadi, – deydi boshlang'ich sınıf rahbari Farida Hammadova.

Ustoz ta'kidlaganiday, poystaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 42-umumta'lum maktabida Navro'zga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda har bir o'quvchi faol qatnashdi. Bayram kechasida 1-«B», 1-«I» sınıf o'quvchilarining

chiqishlari tomoshaga kelgan ota-onalarga, o'qituvchilarga manzur bo'ldi. Ayniqsa, Husan Qobiljonovning ertak qahramonlarini libosda chiqishi, Almaz Nasibullin, Abdusaid Akmaljonovning bahor haqidagi go'zal she'ri barchaning olqishiga sazovor bo'ldi. Shuningdek, maktab qoshida ochilgan «Sho'x bolalar», «Do, mi, sol» bolalar qo'shiq va raqs guruhi a'zolari – Ruxshona Mullabekova, Parizod Jonibekova, Yasmina Mirpuzalova, Ziyoda Anvarovalar «Toshkentim» deb nomlanigan milliy raqsni mahorat bilan ijro etdilar. Ularning iste'dodi yuzaga chiqishida guruh rahbarlari Muniraxon Sharopova, Elvira Sultanovalarning mehnatlari beqiyos. Ushbu kechani tashkillashtirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosari Dilnoza O'ktamovaning xizmatlari katta bo'ldi.

Nigora ABDUNAZAROVA



Kitobni qadrlamoq kerak, bu - tafakkur qasriga izzat-ehtirom bilan qadam qo'ymoq lozim.

A. I. GERSEN

Xabaringiz bor, bolalik
chog'larimdan buyon u-bu narsa «qoralab»
kelaman. 5-sinfda o'qib yurgan mahalimda
ustoz shoir Abdulla Oripov e'tirofiga tushgan edim.
«Bolakay shoir» nomi bilan tilangan «oq yo'l» va
undagi umidli so'zlar, mana o'ttiz yildirik,
hali-hanuz meni bezovta qilib
keladi...

Orif TO'XTASH,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

BOLA O'LOLMASAK ARCHASI EKOR!

Ha, bolalarbop asar yozishning o'zi bo'lmaydi, buning zalvori boshqacha. Bir qarashda bolalarga bag'ishlab yozilgan asarlarni, ayniqsa, qisqa va o'ynoqi she'rлarni o'qirkansiz, ulardagi o'ta oddiy so'zlarni o'qib, «Shuyam she'r bo'ldimi?» deguvchilar ham topiladi. Ammo barchamizni mana shunday azamat adabiyot bag'riga boshlagan, so'zga bo'lgan mehrimizni oshirgan ayanan bolalar adabiyoti emasmi?!

Ba'zan uchrashuvlarda «Nega bolalar ijodkorlari kam?» deb so'ra-shadi. Aslida, «Qaysi zamonda bolalar adib-u shoirlari ko'p bo'lgan?» degan savolni javob tariqsida bera-man. Shu savol-javobning o'zi ham bolalarga bag'ishlab ijod qilish juda yengil vazifa emasligini tasdiqlaydi. Qolaversa, buning uchun, avvalo, ijodkor bolalik tasavvurlarini yo'qtob qo'ymasligi kerak.

Xullas, o'tgan 2017-yilda chop qilingan bolalar nashrlariga e'tibor qaratamiz.

Har bir she'r aslida bir topilma bo'lishi kerak. Ustoz ijodkor, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning bolalar tili bilan aytganda, sermag'iz she'rларини o'qib, aksariyatini yod olib, shunday xulosaga kelamiz. «G'uncha» jurnalida chop qilingan turkum she'rларидан misol keltiraman. Tasavvur qilingki, karam tilga kirib, shunday demoqda:

Menga souvuq qilmas kor,
Qavat-qavat to'nim bor.
Faqt to'nni men qari,
Kiyvolibman teskaril

«Chumolining maqoli» degan she'mni qarang:

Yoz bo'yishlab,
Qish bo'yish mudra.
Nimani topsang,
Uyingga sudra

Hozir mana shu she'rлarni o'qiyapman-u, ayni shu kezda yodimga

muhrlanib bo'lganini ham his qilib turibman.

Chinakam she'r baribir ajralib turaveradi. Misol tariqasida shoir Ne'mat Dushayevning «Tong yulduzi» gazetasida chop qilingan «Ketmon» nomli she'rini olaylik:

Ekinlarni yumshatib,
Hattoki loy qoramani.
Bekor turmay ovulga,
Hasharga ham boraman.

Men dehqonga madakkor,
Mehnat qilib tolmangiz.
Yuzimga oyoq qo'yib,
Peshonangiz yormangiz!

Bu she'rda ketmonning vazifalari oddiy so'zlar bilan sanab o'tilish barobarida o'ziga xos hajv bilan tugallangan. Topilmaga qoyil qolmasdan iloj yo'q!

Shu o'rinda bolalar nashrlarida chop qilingan Abdurahmon Akbarning turkum she'rларини o'zga bir maroq bilan o'qish mumkin. Shoiring birgina «So'zlovchi yomg'ir» she'r'i o'quvchi tasavvurlarini jonlantirib yuboradi. She'rda yomg'ir tilidan aytilgan shunday obrazli so'zlarga duch kelasiz:

Ishim o'zi shunaqa,
Hamma joyga yog'amani.
Qarindoshman qor bilan,
Shudringvoya tog'amani.

Yaylovdagi suruvdek,
Ko'kda kezib yursak ham.
«Bizlar asli yerlikmiz»,
Deydilar Bulut onam...

Hazillashib tortqilab,
Maysalar qulog'idan.
G'ubor-changni yuvaman,
Gullarning yaprog'idan.

Shu o'rinda sevimli ijodkor, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning «Tong yulduzi» gazetasining 2017-yil 1-may sonida «Niyating – pok, ko'ngling –



oq, istagan tomonga oq!» sarlavha ostida chop qilingan tuyuqlarga hamohang bo'lgan bolalarbop turkum ikkiliklari aytilib o'tmoqchiman. Ular topilmalarga boyligi hamda murg'ak tasavvurida bitilganligi bilan e'tiboringizni tortadi. Qolaversa, bu jajji ikkiliklilar «Erkatoj – erka toy» nomi ostida kitob holida ham chop qilindi.

Shuningdek, bolalar nashrida Dilshod Rajab, Sodiqjon Inoyatov, Xurram Raimov, Qambar ota, Odil Abdurahmon, Kavsar Turdiyeva, Xudoiberdi Komilov, Qo'zi Ismoil, Turob Yusuf, Olqor Damin, Ernazar Ro'zimatov, Yahyo Tog'a, Nurilla Ostton, Turob Niyoz, Bahrom Akbarov, Rauf Subhon, Raim Farhodiyabi kabi shoirlarning turkum she'rларини ham zavq bilan mutolaa qilish mumkin. Bundan tashqari, «Gulxan» jurnalida jahon bolalar she'rятidan tarjimalar berilayotgani ibratli. «G'uncha» jurnalidagi «She'rmunchoq» hamda «Gulxan»dagi «Nishona» rukni ostida berilayotgan bir qancha yosh qalamkashlar ijodida ham yangicha yondashuvlar sezilib turibdi.

O'zimning yozganlarim qay darada bilmadim-u, lekin bir she'rxon sifatida biror tashbehsiz, nogahoni topilmalarsiz va shu bilan birga, quruq pand-nashitga yo'g'rilgan bitiklarning hammasini ham she'r hisobololmayman. Afsuski, nashrlarimizda bu turdagи yozishmalarni ko'plab uchratish mumkin.

2017-yil mobaynida turli nashriyot-

larda chop qilingan bolalar she'riyati yo'nalishidagi bir qancha kitob qo'limga tushish. Gulandom Tog'ayevning «Men izlagan kema», Ochil Tohirning «Harflar jamlanmasi», Milliqboy Xonnazarovning «Bulbul bo'lib sayrayman», Zuhro Beginning «Yurtimiz nihollari» hamda Nabijon Ermatning «G'aroyib qo'shiqlar» nomli risolalari mazkur kitoblariga kiritilgan she'rлarda ham bolalar hayotidan olingen shingil lavhalarga duch kelasiz.

Biroq bir so'zni takror va takror aytilsha to'g'ri kelmoqda: bola bo'lomasak – barchasi bekor! Baayni shu maqsadda maqolani ham shunday nomladim.

Ha, atyganday, butun umrini mana shu nurli yo'lga baxsh eta olgan ustoz ijodkor Tursunboy Adash-boyevning aynan bolalarga she'r yozish mashaqqatini aks ettirgan bir turkum she'rлari ham bor. Masalan:

Kigizdan qoziq yasab,
Xarsang uzra qoqqanday.
Balalarday zavqlanib,
Olamga ilk boqqanday.

Kutilmagan qofiya,
Ko'kda chaqmoq chaqqanday!
Yaxshi kitob uchrasa,
Qaysi bola suyunmas!

Suratlardan zavqlanib,
Takror o'qib to'yinmas.
Kichkintoysa she'r yozish,
O'yinchoqmas, o'yinmas!

Ustoz ijodkor bilan hayotlik paytlarida she'riyaytishmalar qilib turardik. So'zimning oxirida ustozning yuqorida o'qilgan she'riga shogirdlik erkali bilan nazmiy davom yozgan edim. Xulosa o'nida ham qabul etish mumkin bo'lgan ushbu she'rni e'tiboringizga havola etsam:

«Kichkintoysa she'r yozish,
O'yinchoq, o'yin emas».
Lek Tursunboy og'aga,
Bu ish ko'p qiyin emas.

Taajjub, bir qarasang,
Yosh bolaga do'nadi.
Yana bir boqsang, soch-u
Qoshiga oq qo'nadi.

Kichkintoylar tilini,
O'zlashtirgan boladay.
Salkam sakson bahorni,
Qarshi olgan «bolakay».

Neveralar turishsa,
Biroz gapga bo'yusunmay,
Deydi: – Keling, o'ynaymiz,
Mening otim – Tuysunboy!

Bolalayga bag'ishlab,
She'y yozaman, bilasiz.
Ulayni o'qiganda,
Qiqliq-qiqiq kulasiz.

Siz xayxasha qilmang ko'p,
Jahlim chiqsa, koyiyman.
Do'stingizman va yana –
Tuysun degan shoymen!

Ilm o'lchovi - aql,
Zehn o'lchovi - naql.

Teng
yulduzi

Orangizda chuqur bilim olib, o'z maqsadlari sari olg'a intilayotgan o'quvchilar juda ko'p. Gulinur Sulaymonova ana shunday intiluvchan yoshlardan biri. U Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 87-IDUMning 9-«B» sinf o'quvchisi. Tengdoshingizning orzulari bir olam. U kelajakda tarjimon bo'lmoqchi.

GULINUR TARJIMON BO'LMOQCHI

Gulinurning otasi Komil aka fermer, onasi Ozoda opa esa uy bekasi. Oilada farzandlar barkamol va salohiyatli bo'lib yetishishlari uchun yaqinlari tomonidan alohida e'tibor beriladi. Jumladan, 6-sinfda o'qiydigan Sevinch rasm chizishni yaxshi ko'radi. U sportning kurash turi bo'yicha O'zbekiston championi. 3-sinfda o'qiydigan Shahzod va



- Til bilishning zavqi o'zgacha, -
deydi Gulinur ishonch bilan.

OTA-ONA – HAYOT BOG'BONI

Dunyodagi eng shirin ne'matlardan biri, shubhasiz, farzandir. Har bir ota-ona uchun umri davomida eshitadigan eng yaxshi so'z – farzandi orqasidan «Ota-onanga rahmat», degan so'zdir.

Farzand dunyoga kelgach, avvalambor, unga go'zal ism qo'yamiz. Hech kimdan kam bo'lmay unib-o'sishi uchun tinim bilmay mehnat qilamiz. Orzu-havaslarga berilib, hashamatli uylar quramiz, dabdabali to'ylar qilamiz. Ammo farzandlarimizning kela-jagi uchun faqat shularning o'zi muhim, desak, adashgan bo'lamiz.

Qadimdan dono xalqimiz farzandlarni bog'dagi yosh nihol-larga, ota-onani esa bog'bonga mengzaydi. Bog'bon har bir yosh niholni mehr bilan parvarish qilib doimo e'tibor qaratasa, vaqtি kelib, u katta daraxtga aylanadi. Bolaga ham, avvalambor, ota-ona go'zal tarbiya berib, yuksak ta'lim olishi uchun sharoit yaratmog'i lozim. Shunda har bir bola o'zining hayot yo'llarini to'g'ri tanlay oladi. Kelajakda oilasi, Vatani ravnaq uchun o'z hissasini qo'shadigan inson bo'lib yetishadi, ezgu ishlarning davomchisiga aylanadi.

Shuning uchun ham yurt xizmatiga bel bog'lab, ota-onasi xalqining ishonchini oqlaydigan, jismonan sog'lom, ma'nан yetuk, har tomonlama barkamol o'g'il-qizlarni komil inson etib tarbiyalash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Rahima SAYFIYEVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi
8-umumta'lim maktabining
bosholang'ich sinf
o'quvchisi

Qadimdan xalqimiz orasida tabiat bilan bog'liq biri-biridan chiroyli bayramlar, an'analar mavjud. Shulardan biri Navro'z ayyomidir.

MEN BAHORGI TA'TILDA...

Bu fayzli bayram jonajon diyorimizda keng tantana qilinadi. Bahorni sog'ingan xalqimiz tabiat qo'yniga oshiqadi, shahar-u qishloqlarda sayllar bo'lib o'tadi.

Jumladan, bizning bilim dargohimizda ham Navro'zi olamga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Unda milliy urf-odatlarimiz, qadim qadriyatlarimiz, an'analarimiz aks ettirilgan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. O'quvchilarning musiqi chiqishlari tadbirga o'zgacha fayz bag'ishladi.

Bayramdan so'ng ona tili va adabiyot fani o'quvchilarimiz bizni bahorgi ta'tilga kuzatarkan, ko'proq kitob o'qishimizni, ta'til taassurotlari haqida hikoya yozib kelishimizni tayinladi.

Men ta'til kunlarini buvjonimnikida o'tkazdim. Buvimni mahallada bo'ladigan Navro'z bayramiga takif qilishdi. Odatga ko'ra, bunday tadbirlarga quruq qo'l bilan borib bo'lmaydi. Buvim yalpizli somsa yopdilar, men esa ularga yordamlashdim. Buvjonimnikida badiiy kitoblar juda ko'p. Ta'til davomida bir nechta kitob o'qidim. Yana ko'k somsa, chuchvara tayyorlashni ham o'rganib oldim. Xullas, bahorgi ta'til kunlarim besamar o'tmadi.

*Odina MUHAMMADJONOVA,
Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va
san'at litseyining
5-«E» sinf o'quvchisi*

Nodira NAZAROVA

Qarshi davlat 2-ixtisoslashgan umumta'lim maktab-internatida iqtidorli yigit-qizlar ko'pchilikni tashkil qiladi. 10-«A» sinf o'quvchisi Sitora Raupova ana shunday a'lochi va jamoatchi qizlardan.

A'LOCHI QIZ SITORA

Sitora bilan suhabatimiz maktabning «Madaniyat va ma'rifat» xonasida kechdi.

– Yoshligimdan chet tillarni o'rganishga astoydil kirishganman, – deydi Sitora.

– Rus tili fani o'quvchimiz Dilbar G'aniveva meni fan Olimpiadalariga tayyorlab bordilar. Sinovlarga jiddiy tayyorgarlik ko'rdik. 8-sinfda rus tili fanidan shahar bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida 2-o'rinni olishga erishdim. Shunda bilimdon, intiluvchan tengdoshlarim juda ko'pligini anglab yetdim.

Uning o'quvchisi, tarbiyachilar bilan suhabatlashganimizda, ustozlar Sitoradek odobli, aqli, a'lochi va har bir ishda namunali o'quvchilari borligi bilan faxlanishlarini ayishdi.

Sitora bilan maktab-internatida yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, sinfxonalarni ko'zdan kechirdik, yotoqxona, kutubxona va sport zalida bo'ldik. Bu yerda o'quvchilarning ta'lim va tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganining guvohi bo'ldik. Ozoda, yorug', shinam sinfxonalar, lingofon xonalari, kitob, o'quv

qo'llanmalarga boy axborot-resurs markazi o'quvchilarning xizmatida.

Yana bir jihat: Sitora ingliz tili bilan ham jiddiy shug'ullanadi. U o'zbek tili dan ingliz tiliga novella, kichik hikoyalar tarjima qilayotgani, hozirda o'zbek xalq dostonlaridan «Rustamxon»ni inglizchaga o'girishni boshlagani haqida gapirib berdi. Maktab-internatning faxri bo'lgan Sitora sport gimnastikasi bilan ham shug'ullanadi. Badiiy kitoblar mutolaasiga ham vaqt ajratishini aytmasizmi... Uning sevib o'qiydigan asarları – «O'tkan kunlar», «Yulduzli tunlar», «Me'mor», ardoqli shoirlarimiz Abdulla Oripov va Erkin Vohidovning she'rлari.

Bilimdon o'quvchi Sitora Raupovaning kelajakdag'i orzulari juda ko'p. U xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, do'st-birodar qilishdek kuch-qudratga ega bo'lgan tarjimonlik kasbini egallashni o'z oldiga maqsad qilgan. Sitoraning bu yo'ldagi ezgu ishlariiga omadlar tilab qolamiz.

Yusufjon HAMDAMOV

ZAVQLI DARS

The weak can never forgive.
Forgiveness is the attribute of
the strong.

Mohandas Mahatma GANDHI

Abdullo ingliz tilini juda yaxshi ko'radi. Bugun uning sevimli fanidan ochiq dars bo'ladi.

Ustozi Ziyoda opa Nosirova turli ko'rgazmali qurollar va multimedya vositalari orqali qiziqarli dars o'tadi. Biz esa sizni poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 316-umumta'limg matabining 4-«A» sinf o'quvchilari bilan birgalikda «How did you get



ORZULARI QANOT YOZGAN QIZ

Dinara Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumanidagi 54-umumta'limg matabining 3-sinf o'quvchisi, u qozoq tilida tahsil oladi.

Dinaraning orzulari bir olam. O'z ustida tinimsiz ishlashdan tolмаган qizaloq maktabda tashkil etilgan musiqa, shaxmat-shashka, do'mbira, raqs kabi to'garaklarda o'z mahoratini ko'rsatib kelmoqda. Dinara Baxtibaeva Navro'z bayrami munosabati bilan o'tkazilgan tadbirlarda o'zining Lazgi raqsi bilan tomoshabinlarni hayratga soldi. Sportning basketbol turi bo'yicha maktablar aro o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanma oldi. Elda «Intilganga tote yor» degan maqol bor. Orzulari qanot yozgan qizimizga baxt hamisha hamroh bo'lishini tilaymiz.

A. KARIMOV



FEELINGS BINGO

Look at the pictures and match his feelings.

**Angry, hot, cold, confused,
happy, sleepy, scared, bored, sad**



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

Ma'mura G'ULOMOVA

here today?» mavzusini o'rganishga taklif etamiz.

Mavzuga ko'ra o'quvchilar bugun qaysi transport vositasi yordamida maktabga kelganlari va ularning nomlarini birma-bir aytib berdi. So'ng, o'qituvchi ana shu vositalar yordamidagi harakat haqida gap ketganida **on foot**, «piyoda bormoq» jumlasida esa **by car** predloglari qo'llanilishini tushuntirdi. Shundan so'ng, Mastura Rustamxo'jayeva, Ibrohim Olimov, Muxlisa Ismoilboyeva, Rayona Husanova va Robiya Odiljonova kabi zukko o'quvchilar mavzuga oid quyidagi gaplarni tuzishdi:

I get here on foot today.

I get here by car today.

Ta'limg maskaniga kelganimizdan xabar topgan 3-«A» sinf o'quvchilari ham bizni sinfonalariga chorladi. Ular ham ustozlari Saodat Nurmatova boshchiligidagi ochiq dars tashkil etishgan ekan. Bizni qur'onch bilan qarshı olgan o'quvchilar davlatimiz madhiyasini ingliz tilida aytib berishdi. So'ng, ustoz **«Brush your teeth»** mavzusidagi ochiq darsni boshladi. Bolajonlar tish tozalash, sochni tartibga keltirish kabi harakatlarni ingliz tilida ifodalashni o'rganishdi. Mavzuga oid so'zlarni qo'shiq tarzida ijro qilgan o'quvchilar

qiziqarli darsdan bir olam taassurot oldi. Risolat Husanova, Zaynab Qosimova, Mumtoza Shuhratovaning burro javoblaridan bolajonlar darsni yaxshi o'zlashtirishganligiga amin bo'ldik.



Ana shunday zavq-u shavq bilan til o'rganayotgan ilmiga chanqoq o'quvchilarni bugun ham gazetamizdagи «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasidagi ajoyib dars bilan tanishishga taklif etamiz.

Sayyora QODIROVA

Lesson 13

HOW MANY TYPES OF MONEY DO YOU KNOW?

Full fill the gaps.

1. In school, it is fee
2. In court it is ...
3. In divorce...
4. When we pay the government, it is ...
5. Employer to workers it's...
6. When you borrow from bank, it's ...
7. Illegally received in the name of service, it is ...
8. When you dedicated to poor people...



Bribe, salary, alimony, fines, loan, donation, tax

CLOUDY GRAMMAR

Read the grammar and match the answer.

Noun

is used in place of a noun.

Pronoun

describes a noun or pronoun.

Adjective

shows an action.

Adverb

name of person, place thing or idea.

Verb

modifies a verb.

Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Dinora ABDULLAJONOVA

VATAN

Tug'ilib o'sgan go'sham,
Bu Vatanim bo'ladi.
Doim bag'rida bo'lsam,
Dil quvonchga to'ladi.

Xalqimiz zo'r – mehmondo'st,
Chetlab o'tar kam-u ko'st.
E'zozdadir keksalar,
Bag'rimizga kelsalar.

Yigitlari pahlavon,
Ayamas yurt uchun jon.
Bog'larimiz bepoyon,
Doim to'kin dasturxon.

Gulxumor ABDUXALILOVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi
tumanidagi 15-umumta'l'm
mektebinining 6-«B» sinf o'quvchisi



SHUKRONA

Oshxonada ovqat tayyorlab,
Birdan «voy» deb qoldilar oyim.
Shoshib qo'llariga qarasam,
Ari chaqibdi! Yo, Xudoyim!

Zumda shishib chiqdi qo'llari,
Og'riq kuchli bo'lishi tayin.
Lekin oyim sochimni silab,
So'zlardilar jilmayib mayin:

«Balalarim, xavotir olmang,
Qo'rqtgan bo'lsam, ming bor uzr.
Yaxshiyamki, sizga tegmadi,
Ari meni chaqibdi, shukur».

E'zoza USMONXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 34-umumta'l'm
mektebinining 9-«V» sinf o'quvchisi



ENG OLIY ORZU

Orzular osmonida,
Misli qush bo'lib uchsam.
Barcha tilaklarimga,
Men ham, albatta, yetsam.

Eng oliy tilagimdir,
Vatanim tinch, yo'qdir g'am.
Yurt tinchligin asrashga,
Bo'layin doim hamdam.

Roza HAMZAYEVA,
Samarcand viloyati, Qo'shrabot
tumanidagi 24-umumta'l'm
mektebinining 7-«B» sinf o'quvchisi

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda)

Ba'zan keksalardan shunday
yozg'irishlarni eshitib qolaman: «E,
hozirgi bolalarmi, hammasi olim-u
dono, qulqosiz, yuzlari ham ochilib
ketgan!» O'yaniq qolaman. Nimagadir
bu gapning bir uchi menga ham tegib
ketadi. Chunki «hozirgi bolalar» ichida
sen ham borsan-da. Bilasanmi, men

bilan qaraydilar. Ko'p narsa biladilar.
Bizlar bolaligimizda kattalar mana
bu ishni qilsang savob bo'ladi,
qilmasang gunoh bo'ladi, desalar,
savobini qilib ketaverardik. Nega,
nimaga degan savolni berishni
bilmasdik. Hozirgi bolalarga «oq»
desak oqni, «qora» desak qorani
tushuntirib berishimiz kerak. Ular
hamma narsansi tub mohiyati bilan
bilishni istaydilar.

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist



OLIM-U DONO BOLAM

seni o'z tengdoshlarindan ustun
ham, kam ham qo'yolmayman. Bir
qatorda ko'raman. Meni nabiram
unaqamas, boshqasi bilan nima
ishim bor, deyishga haqqim yo'q.
Axir shunday gullab turgan Vatanni
qandoq qilib «qulqosiz, yuzlari ham
ochilib ketgan»lar qo'liga tashlab
ketish mumkin! Men bu savolga
bolalarni yoq'irib aytigan so'zlarining
o'zidan javob izlayman. Axir odam
bir vaqtning o'zida ham olim, ham
dono, ham qulqosiz bo'lishi mumkin-
mi? Yo'q! Aslida olim-u dono bilan
donolarcha gaplashish kerakmasmi?
Aksincha bo'lsa, albatta, qulqoqa gap
kirmaydi-da. «Yuzlari ham ochilib
ketgan» degan gapni esa hecham
hazm qilib bo'lmaydi. Bu hayosiz,
behayo degani bo'ladi. Men bu-
ning o'rniga yuzlari emas, «ko'zlar
ochiq» degan bo'lardim. Sababi,
hozirgi bolalar olamga ochiq ko'z

Man, meni o'zim senga dars
tayyorlashni sahar paytiga ko'chir,
kechqurun barvaqt yotib uxla, deb
ko'p gapirdim. Bo'lindi, u qulog'ing-
dan kirib-bu qulog'ingdan chiqib
ketaverdi. Shunda men sen bilan
olimlar tilida gaplashishga o'tdim.
Nima dedim:

«Bolajonim, yaxshilab eshit. Ollo
Taolo bekorga kunduzi bilan kechasini
yatratmagan. Kunduzi charchaysan,
jamiyi a'zolaring oz bo'lsa ham
sog'lig'ini yo'qotadi. Kechasi esa
ular o'zlarini tiklab, ertangi kunga
tayyorlash paytida millionlab
hujayralar o'z-o'zini «operat-
siya» qildi. Ta'mirlanish jarayonida
ularga toza havo – kislrorod kerak
bo'ladi. Kislorodni og'iz va burun
bo'shlig'idan, terining millionlab
te-shikchalaridan oladi. Shuning uchun
uyqudan oldin sovun, tish pastalarini
ishga solib, cho'milib olish kerak.

Yana tungi muolajalar
ko'ngildagide bo'li-
shi uchun sen kamida sakkiz soat
uxlashtirish zarur. Mo'jlaldan bir soat
kam uxlasang ham «operatsiya»
oxiriga yetmay qoladi. Bu surunkali
davom etaversa, bir kasallikka olib
boradi.


Bu gaplarim senga qattiq ta'sir
qildi. O'sha kundanoq shu reja va
tartibga o'tding. Dars tayyorlashlar
saharga ko'chdi. Shunda sen nima
deding:

«Dadajon, kallam yomg'irdan
keyingi osmonga o'xshab tiniq bo'lib
qoldi, miym soatdek tez ishlayapti.
Kechqurun ikki soatda qiladigan
darsimni, erta bilan bir soatda qilib
qo'yyapman», deb o'zing e'tirof
qilding. Ana shunaqa, mening olim-u
dono bolam. Yigirma birinchi asr ilm
asridir. Bu qush tilini qush biladi,
deganidir. Sizlar hur Vatanning erkin
qushlarisiz...

(Davomi bor)

MUHAMMAD YUSUFNI TOPDIM...

Muhammad Yusufni izlab, kun choshgohdan o'tgandan keyin uylariga
bordim. Eshik qo'ng'iroq'ini bosdim. Eshik oldida sochlari jingalak, keng
yag'rinli, polvonsifat yigitdan:



– Muhammad Yusuf sizmisiz, – deya so'radim.
– Ha, menman, – deya javob berdi qarshimdag
xushsurat yigit.

Salom-alikdan keyin Muhammad Yusufning dars-
xonasiga kirdik. O'rtadagi xontaxta ustida kitoblar
qalashib turibdi. Men xontaxta yoniga to'shalgan
baxmal ko'rpa chaga o'tirdim. Muhammad Yusuf bilan
uning o'qishlari, do'stlari haqida suhbatalashdi. So'ng,
u sevimli shoiri Muhammad Yusuf ijodidan yod olgan
bir she'rni o'qidi:

Mendan nima qolar:
Ikki misra she'r,
Ikki sandiq kitob,
Bir uyum tuproq...

Bu ajib misralarni tinglab, xayolga cho'midim. Yosh
Muhammad Yusufning ko'zlariga boqdirm, uning xayoli
og'ushida qo'shilib oqdim. Beixiyor O'zbekiston xalq shoiri
Halima Xudoyberdiyevan sheri ko'nglimdan kechdi:

Bir arsloni o'tdi O'zbekning,
Ohi ko'kka yetdi O'zbekning.
Quyosh yig'la, osmon aza tut,
Muhammad ketdi O'zbekning...

– She'r yozishni Muhammad Yusufdan o'rganishga
intilaman, ustozning she'riy kitoblarini yostig'im tagiga

qo'yib yetaman, – deydi yosh Muhammad Yusuf. So'ng,
u o'zining xomaki she'rini yoddan o'qiydi:

Vatanim, oh, mening ko'zim,
Dilimda oh, orli so'zim.
Yolg'on bo'lsa aytgan so'zim,
Oqib tushsin ikki ko'zim...

Unga ota-onasi yaxshi niyat bilan bu ismni qo'ygani
bejiz emas. Shoir Muhammad Yusufning ko'plab sado-
qatlari muxlislari, shoirga bo'lgan cheksiz hummatlarining
belgisi sifatida o'g'llariga Muhammad Yusuf deb ism
qo'yishgan. Yillar o'tib, «Muhammad Yusuflar» qo'liga
qalam olsa, o'zbek adabiyoti bo'stonida yangi yulduzlar
paydo bo'lishi aniq.

Shoir Muhammad Yusuf o'zining o'lmas she'rlari
bilan Vatan ko'ksida, xalqning yodida, Muhammad
Yusuflar dilida, avlodlar silsilasida, shogirdlar qalbida
ustoz bo'lib asrilar osha yashaydi.

Ha, aytgancha, yosh shoir bilan gurungga berilib,
uni tanishtirish yodimdan ko'tarilibdi. Muhammad Yusuf
Davron o'g'li 15 yoshda. U kelajakda xalqimizning sevimli
shoiri Muhammad Yusuf kabi milliy adabiyotimizden
munosib iz qoldirishni maqsad qilgan. Biz bo'lajak
shoirga beg'ubor orzulari ushalishiga tilakdoshmiz.

Nasriddin ISMOILOV,
Surxondaryo viloyati, Denov tumani

Avvallari o'zbek qizlarining badiiy gimnastika sport turi bilan shug'ullanishi, musobaqalarda ishtirok etishiga ularning yaqinlari, ayniqsa, ota-onalari qattiq qarshilik ko'ssatar edi. Quvonarlisi, keyingi yillarda xalqimiz orasida bu masalaga munosabat ijobjiy tomonga o'zgardi.

JAMILANING SHOGIRDLARI

xalqaro musobaqada g'olib bo'ldi



Mamlakatimizda qizlar sportiga ko'satilayotgan yuksak e'tibor natijasida endi ota-onalarning o'zlarini farzandlarining qo'llaridan yetaklab mashg'ulotlarga olib bormoqda. Buning samarasini o'laroq, sport malikalarimiz Osiyo va jahon championatlari, boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda ona

Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqda.

Ana shunday iste'dod egalaridan biri Jamila Rahmatovadir. Nafaqat yurtimiz, balki jahon sporti mulxis-u mutaxassislari ham ushu nomni juda yaxshishadi. Jamila badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan ko'plab qit'a va jahon miqyosidagi turnirlarda munosib ishtirok etib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egallagan. Qarangki, so'nggi yillarda u yosh avlodga sportdag'i bilimlarini chuqur o'rnatib, yangi-yangi nomlarni kashf etishga intilmoqda.

Kuni kecha Qozog'istonda badiiy gimnastika bo'yicha bolalar o'tasida o'tkazilgan «KERBEZ CUP – 2018» xalqaro turnirida Jamilaning yosh shogirdlari munosib ishtirok etib, yakunda 5 ta oltin hamda 2 ta kumush medalni qo'lga kiritdi.

Jumladan, Arina Petrova, Sora Nurmatova, Jamila Jalilova, Zebo Yoqubova, Samira Boqiyeva shohsupaning birinchi pog'onasidan joy oldi. Ularning chiqishlari mahalliy muxlislar da katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, yana ikki nafer yosh atletimiz kumush medal bilan taqdirlandi.

S. TURSINOV

FARG'ONALIK CHEMPIONLAR

Maktabimizda 500 nafardan ziyod yigit-qiz badiiy gimnastika hamda sport gimnastikasi bilan shug'ullanadi, - deydi Farg'ona shahridagi ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari gimnastika maktabining murabbiyi, «Shuhrat» medali sohibi Yelena Drujinina.

Yaqinda poytaxtimizda o'tkazilgan respublika musobaqasida mamlakat kubogi uchun bo'lgan bellashuvda Anastasiya Murashnichenko mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, maktab o'quvchisi Mohinabonu To'lanova ham sovrinli o'rinni egalladi.

Bundan tashqari, poytaxtda o'tkazilgan trampolin bo'yicha bo'lgan respublika ochiq championatida ham maktabning 4 nafer sportchisi g'oliblar safidan o'rinni egalladi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

TAEKVANDODAN O'Q OTISHGACHA...

Joriy yilning 18-fevralida Toshkent viloyati, Nurafshon shahar bolalar va o'smirlar sport maktabida ochiq championat o'tkazildi. Sportning taekvando VTF turi bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqada 90 naftarga yaqin 6-18 yoshli sportchi o'zaro bellashdi.

Nurafshon shahridagi 32-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Islombek Karimboyev 25 kg vazn toifasida 1-o'rinni egalladi.

– Islombek Parkent tumani vakili bilan gilamga chiqqanda, juda hayajonda edi. Biroq o'ziga bo'lgan ishonch hissiyotlarini jilovlashda qo'l keldi va raqibidan ustun chiqdi, – deydi murabbiy Hilola Qurbonova.



O'zbekiston Respublikasi Mudofaasiga ko'maklashevchi O'rta Chirchiq tuman «Vatanparvar» o'quv sport texnika klubni o'q otish va yozgi biathlon to'garagida mohir sportchi-merganlar shug'ullanishadi. Nurafshon shahridagi 48-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Rustam G'ofurov hamda 8-sinf o'quvchisi Temur Abilkayirov murabbiy Leonid Yugayning iqtidorli o'quvchilaridan sanaladi. Joriy yil Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilgan sport musobaqasida Rustam 71 ochko jamg'arib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi, Temur esa 3-o'rinni egalladi.

Muhammadsodiq ALIMOV

Ta'lim maskanimiz «Jasorat maktabi» maqomiga erishdi. Endilikda chuqurlashtirilgan sport sinfida o'quvchilarimiz o'z iqtidorlarini tolab borishadi. 1-«B» sinf o'quvchisi Amir Temurxon qo'l jangi, dzyudo, milliy kurash sport turlari bo'yicha o'tkazilgan turli musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Uning medallariga sinfdoshlari havas bilan boqishadi. Akasi Alisher esa sport sinfining sardori.



JAJJI POSBON

Darslarda a'llo baholarga o'qiyotgan kichik champion adabiyot faniga qiziqadi. U Muhammad Yusufning bir nechta she'rlarini yod olgan. O'zi ham ustozlari Lobar Qurbonova ko'magida she'r yozishni mashq qiladi. Quyida yosh sportchi Amir Temurxonning ana shunday mashqlaridan biri bilan tanishishingiz mumkin.

Vatanimga siz posbon,
Siz bilan sofdir osmon.
Ko'ksingiz erur qalqon,
Men uchun siz qahramon.

Mohin OMAROVA,
Toshkent shahar, Yashnobod
tumanidagi 153-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi



Alisher Navoiy no-midagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti yaqin-da bolalar shoiri Nabijon Ermatning o'simliklar dunyosiga bag'ishlangan «Alifboli tez ayish va topishmoqlar» kitobini chop etdi.

ayish va topishmoqlarni qalamga olarkan, har bir giyohni chucher o'rganganligi sezilib turibdi. Kitobdan o'r'in oigan ijod namunalari o'simlik turlarining tabiatda tutgan o'mi, ahamiyati va shiboxshligi alohida ta'riflanadi.

Jumladan, «Umidim nihollari» she'rida shunday satrlar bor:

*Alifbo tartibida,
Tez ayishlar jamladim.
To'qib ko'p topishmoqlar,
She'rim mustahkamladim.*

Haqiqatan ham kitobdan o'r'in oigan tez ayishlar, topishmoqlarni o'qib, o'simliklarning beqiyos dunyosiga sayohat qilasiz. Giyohlar haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni bilib olasiz.

Masalan, quyidagi topishmoq orqali ham bu boradagi bilmilaringizni mustahkamlaysiz.

*Gulzorimiz qiroli,
Rangi qizil, sariq, oq.
Uch qo'shaloq bargi bor,
Tikani tirnar ozroq.
Chiroyiga yo'q qiyos,
Bu qaysi gul, ayt, G'iyo?*


Shoir Nabijon Ermatning yangi kitobi siz aziz o'quvchilarga manzur bo'lishiha ishonamiz.



Nigora JO'RAYEVA

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

*«Ona» so'zi mushoira,
So'zlar bog'lab ko'p shoira.
Bosh harflarning yig'indisi,
So'z boshlovchiga ishora.*



Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA,
Zangiota tumani

Bosh muharrir
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

GULZOR QIROLINI BILASIZMI?

Shoirning bolalar va o'smirlarga atab o'nдан ortiq kitoblari nashr etilganligini yaxshi bilamiz. Yangi kitob esa Nabijon Ermat ijodida yangilik bo'lganini alohida ta'kidlamoqchimiz. Chunki shoir o'simliklar dunyosi haqida alifbo orqali tez



(Badia)

Ona... Olamdag'i eng go'zal, eng yoqimli so'z. Bu so'zni eshitganda, ko'z oldimizga dunyoning eng yorqin ranglari, dimog'imizga eng xushbo'y gullarning ifori keladi, qulog'imizda qalb kuyi – alla taraladi. Bu so'zni aytganimizda, yuragimizden mehr-muhabbat bulog'i ochgandek, go'yo...

Bu mavzu uzoq asrlardan buning shoir-u allomalar, musavvir-u faylasuflarni o'yga toldirmoqda. Sababi juda oddiy. Har bir insonga o'z onasi eng buyuk zotdir. Onaga mos ta'rif berish esa quyoshga yetib bormoqdek mushkuldir. Shunday bo'lsa-da, ko'p insonlar

ona so'zini quyosh bilan ifoda etadi. Ammo quyosh samolarda faqat kunduz kuni nur sochadi, yorug'lilik ularshadi. Tunda esa tog'lar Onalar-chi, xoh kech bo'lsin, xoh kunduz, qalbidan mehr nurlari taratib turishadi. Hatto tunda ham onalarimizdan muhabbat shu'lesi taraladi. Shunday ekan, bundan keyin ham onajonlarimiz nomi dillarda doston bo'ljak.

Navro'za TURSUNOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahar
6-umumta'lum maktabining
8-sinf o'quvchisi

FOYDALI MASLAHATLAR PIYOZ SIZNI «YIG'LATSА» AGAR...

*Qanday qilib «ko'z yoshni to'kmasdan» piyoz to'g'rash mumkin?
Har qanday uy bekasining doimiy muammosi – qanday qilib «yig'lamas» dan
piyoz to'g'rash mumkin?*

*Balki bizning bir nechta oddiy maslahatlarimiz bu qiyinchiliklardan
qutulishga yordam beradi.*

1 Agar buning iloji bo'lsa, piyozni oldindan 30 daqiqa sovitgichga qo'ying. Sovuq muhit oltingurgut birikmasining tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Lekin piyozni doimiy ravishda sovitgichda saqlash tavsiya qilinmaydi, chunki bu piyozning yumshab qolishiga va chirishiga olib keladi.

2 O'tkir qilib qayralgan pichoq piyoz hujayralarini shikastlanish darajasini, ya'ni oltingurgut ajralib chiqishini kamaytirishga yordam beradi.



3 Pichoqni vaqt-i vaqt bilan sovuq suvda ho'llab turish kerak. Suv oltingurgut ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, tozalangan piyozni oqib turgan suvga ivitib qo'yish tavsiya qilinadi, lekin ko'p vaqtga emas, chunki suv piyozni biroz yumshatadi va buning natijasida uning ta'mi o'zgarishi mumkin.

4 Piyozni to'g'rasha ildizini kesib yubormang aminokislotalarning eng katta miqdori aynan uning ichida joylashgan bo'ladi. Bunday «achchiq» bilan duch kelganda, ko'z yoshlaridan qutulishga imkon beradigan maslahatlarining eng kichik qismidir. Ular sizga, albatta, yordam beradi va gar sizda ko'z yoshlar paydo bo'lsa, unda u faqat quvonch tufayli yuzaga keladi, deb umid qilamiz.

NARGIZA tayyorladi

26-mart 2018

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinnasari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 74475
Buyurtma - V 1320

Tahririyatga kelgan barcha qol'yozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytariladi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahos kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08